



XORAZM VILOYATIDA ICHKI MIGRATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SABABLARI (1991-2023-yillar)

Matvapayeva Nasiba G'ayratovna

tayanch doktorant Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat

Universiteti Urganch shahar, Hamid Olimjon ko'chasi, 14, 220100

+998934679959

matvapayevanasiba757@gmail.com

Annotatsiya:

Bugungi kunda migratsiya va u bilan bog'liq jarayonlar har doimgidanda rivojlanmoqda. Migratsiya tadqiqotlarida ichki migratsiya harakatlarini o'rganish ham muhim hisoblanib, bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy holatiga bevosita ta'sir qiladi. So'nggi 30 yilda Xorazm viloyatida ichki migratsiya jarayoni sezilarli oshdi. Ushbu maqola Xorazm viloyatidagi ichki migratsion jarayonlar va uning sabablari haqida ma'lumotlarni yoritishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: aholi migratsiyasi, ichki migratsiya, iqtisodiy omil, ekologik omil.

Kirish

Aholi migratsiyasi-bu odamlarning u yoki bu hududlar chegarasi orqali, yashash joyini doimiy o'zgartirayotgan yoki qisqa yoxud uzoq muddatga yoki doimiy tarzda kelib ketishini anglatuvchi ko'chishidir. Migratsiyaning ikki turi farqlanadi: xalqaro (mamlakatlararo, tashqi) va ichki (mamlakat ichida). [1.B 209] Birlashgan Millatlar Tashkiloti esa migratsiyaga quyidagicha ta'rif bergan: migratsiya-odamlarning odatdagi turar joyidan mamlakat ichida yoki chegara orqali uzoqlashishi. [2. B 137] Aholi migratsiyasi murakkab ko'p qirrali jarayon sifatida xilma xil xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Aholi migratsiyasining shakllari odatda uning asosiy hal qiluvchi belgisi sifatida migratsiya vaqti bilan belgilanadi. Aholi migratsiyasining quyidagi asosiy shakllari ajratiladi;

Doimiy migratsiya

Vaqtinchalik migratsiya, mavsumiy, epizodik migratsiya



Mayatnikli, kunlik migratsiya. [4. B 63] Ular bir-biridan makon va zamon xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Metodika

Respublikamizdagi ichki migratsion harakatlanishning asosiy sababi viloyatlar hududida doimiy ish bilan ta'minlanish darajasining pastligi, mehnat xaqining arzonligi va ekologik muhitning ta'siri bilan bog'liqdir. Respublika fuqarolarini ichki migratsiyasini shakllanishida moliyaviy tomondan Toshkent jalb qiluvchi hudud sifatida salohiyatga ega hisoblanib, bu shaharda mehnat qilish foizi qolgan hududlarga nisbatan yuqori sanaladi. Misol o'rnida, mamlakatimizning Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasida, Surxondaryo, Samarqand viloyati, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarida aholining ko'chish harakati muntazam ravishda kuzatiladi. Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasidan Toshkent shaxriga ko'chib kelish va ishlash oldindan qulay xisoblangan. Ushbu hududlardagi ekologik vaziyat ko'chib keluvchilar salmog'ini orttiradi va iqlimning ta'siri murakkabligini hisobga olgan holda ularga bu yengilliklar beradi. [5. B 95] 1990-yillarning boshlariga qadar O'zbekistonda migratsiya aniq shahar xarakteriga ega edi va shahar aholisining ulushi doimo o'sib bordi. 1990-yillardagi migratsiya yo'nalishini o'zgartirib, endi qishloqqa qarab yo'l oldi. 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab yana qishloqdan shaharga migratsiya boshlandi. [6. B 24]

Natijalar

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyati aholisi ko'pchiligi qishloq xo'jaligida band bo'lgan. 1990-yillarda iqtisodiy islohotlar jarayonida qishloq joylarida ish o'rinlarining qisqarishi, suv tanqisligi va ishlab chiqarishning sekinlashuvi aholini shahar va tuman markazlariga ko'chishga undagan. 2000-yillarda boshlab Urganch shahri va Xiva tumanida sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi natijasida qishloqdan shaharga migratsiyakuchaydi. Shu davrda Xorazm viloyati aholisi 1991-yildagi 1,200. dan 2023-yilda 1,950 dan oshdi. Gurlan, Yangibozor, Shovot tumanlari aholisi tabiiy o'sish hisobiga ortgan bo'lsa-da, yoshlarning boshqa viloyat va davlatlarga ishlash uchun ketishi ortgan. 2020-yillarda pandemiya sababli ichki migratsiya kamaygan bo'lsa-da, 2021-2023-yillarda yana faollashdi.



Ichki migratsiyani xarakatlantiruvchi omillardan ekologik va moliyaviy qiyinchiliklar bilan bir birga, rivojlangan infrastrukturada yashash istagi, yaxshi sharoitli, yuqori texnologiyalariga ega muhitda ishlash xohishi kabilar turtki bo‘ladi. Aholi ichki migratsiya harakatining sabablarini aniqlash uchun o‘tkazilgan tadqiqotda respondentlarga aynan nima sababga ko‘ra poytaxt Toshkent shaxriga ko‘chib kelgansiz? degan savolga, aksariyat javoblar yaxshi yashashga imkoniyatning borligi, sifatli yashash sharoitini (infrastrukturalar)ning mavjudligi, mutahassislikka mos ish o‘rinlarga egaligi, e‘tiqod erkinligi qolgan hududlarga nisbatan imkoniyatga ega ekanligini ta’kidlashdi. Shu o‘rinda ayrim respondentlar ekologik holatni ham misol keltirishdi, lekin respublikamizning barcha tumanlarida ham oxirgi paytlarda ekologik vaziyat salbiy ko‘rinishga egaligi sir emas. [7. B 96]

Xulosa

Globalashuv sharoitida migratsiya ayniqsa tashqi migratsiya bilan bog‘liq jarayonlar muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Shu bilan birga har bir insonning ijtimoiy chegarasi bir hudud bilan chegaralanib qolgan emas, shu nuqtai nazardan har bir davlatda ichki migratsiya harakatlari ham doimiy kuzatilib turadigan jarayondir. Xorazm viloyatida ham ichki migratsiyaga asosiy sabablar sifatida iqtisodiy, ekologik, va qulay infrastrukturada yashash istagi bilan bog‘liq hisoblanadi. 1991-2023-yillardagi ichki migratsiya qishloqdan shaharga yo‘nalgan bo‘lib, iqtisodiy omil bilan belgilanadi. Ushbu jarayon viloyat markazlarining rivojlanishiga turtki bo‘lgan bo‘lsa-da, qishloq joylarda ishchi kuchining yetishmasligini keltirib chiqaradi. Ichki migratsiyani samarali boshqarish uchun infratuzilmani yaxshilash, yoshlarning tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q., Abdurahmonov X. Demografiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Noshir, 2011. 296 B. 209-bet.
2. Glossary on Migration. 2019 International Organization for Migration (IOM). 71_18 (230420). N° 34.137-bet.



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th November, 2025

-
3. Everett S. Lee. A Theory of Migration. Everett S. Lee. Demography, Vol. 3, No. 1 (1966), pp. 47-57 Published by: Population Association of America Stable URL: <http://www.jstor.org/stable/2060063>
 4. Ата-Мирзаев. О.Б. Узбекистон аҳолиси тарих ва замонавийлик. Тошкент. Ижтимоий фикр. 2009. 223 б.63 б.
 5. Imomova N. O'zbekistonda mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonlariga ta'siri. G-14 N. Imomova-Farg'ona: "Classik", 2024-198 B. 95-bet
 6. Alikhan Aman POPULATION MIGRATION IN UZBEKISTAN (1989-1998) Second Edition Tashkent 1999/ 24-bet
 7. Imomova Nozimaxon Avazxonovna O'zbekistonda mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonlariga ta'siri G-14 N. Imomova-Farg'ona: "Classik", 2024-198 b.96-bet